

---

## Xalq deputatlari Rishton tumani Kengashining navbatdagi sessiyasi bo'lib o'tdi

Xalq deputatlari Rishton tumani Kengashining navbatdagi to'rtinchi sessiyasi bo'lib o'tdi. Unda Xalq deputatlari tuman Kengashi deputatlari, tuman hokimining o'rinbosarlari, kun tartibidagi masalalarga aloqador davlat va jamoat tashkilotlari vakillari ishtirok etdi. Kun tartibidagi masalalar:

1-masala: 2024 yil davomida tumanda hududlarni kompleks ijtimoiy-iqtisodiy rivojlantirish bo'yicha sektorlar va hududdagi tashkilotlar rahbarlari faoliyati hamda murojaatlar bilan ishlash holati to'g'risida O'zbekiston Respublikasi Prezidentining Rishton tumanidagi Xalq qabulxonasi mudiri Sh. Rahimov axboroti;

2-masala: O'zbekiston Respublikasi Prezidentining "Hududlarni kompleks ijtimoiy-iqtisodiy rivojlantirish bo'yicha sektorlar faoliyatini yanada takomillashtirishga doir qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida"gi PQ-4102 sonli qarori ijrosi bo'yicha 2024 yilni 12 oyi davomida sektorlar hududlarida amalga oshirilgan ishlar yuzasidan sektor rahbarlari hisobotlari;

3-masala: 2025 yilda Rishton tumanini kompleks ijtimoiy-iqtisodiy rivojlantirish dasturi to'g'risida;

4-masala: O'zbekiston Respublikasi Bosh prokuraturasi huzuridagi Majburiy ijro byurosining Rishton tuman bo'limi tomonidan O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 24.11.2020-yil kungi "Sud hujjatlari va boshqa organlar hujjatlarini ijro etish tizimini yanada takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi PF-6118-sonli farmoni ijrosi yuzasidan 2024-yilning 12-oyi davomida amalga oshirilgan ishlar to'g'risida tuman majburiy ijro bo'limi boshlig'i adliya kichik maslahatchisi S.Qurbonov axboroti;

5-masala: Tumandagi qonuniylik ahvoli hamda jinoyatchilikka qarshi kurashish yuzasidan 2024 yil 12 oyi davomida amalga oshirilgan ishlar to'g'risida tuman prokurori R. Mehmonov axboroti;

6-masala: Rishton tumanida jinoyatchilikka qarshi kurashish, uni oldini olish soxasida o'tgan 2024 yilning 12 oyi davomida amalga oshirilgan ishlar to'g'risida tuman IIB boshlig'i Sh.Mavlonov hisoboti;

7-masala: Rishton tumanida 2024 yil 4-choragida jamoatchilik fikri asosida shakllantirilgan tadbirlarni moliyalashtirishga yo'naltirilgan mablag'lar to'g'risida tuman iqtisodiyot va moliya bo'limi boshlig'i I.Djo'raev axboroti;

8-masala: Rishton tuman mahalliy byudjetning 2024 yil ijrosi hamda 2024 yil davomida tuman mahalliy byudjetdan mablag' oluvchi tashkilotlarning xarajatlar smetasiga kiritilgan o'zgarishlari to'g'risida tuman iqtisodiyot va moliya bo'limi boshlig'i I.Djo'raev axboroti;

9-masala: Tumandagi ayrim Mahalla fuqarolar yig'inlari hududida joylashgan qabristonlarga nom berish va ularning nomlarini o'zgartirish, shuningdek, nomini davlat reestriga kiritish to'g'risida tuman hokimi maslahatchisi A.Haydarov axboroti;

10-masala: Tumanda mavjud zaxirada bo'lgan yer uchastkalarini ochiq elektron tanlov orqali ijaraga berish to'g'risida axborot;

11-masala: 2025 yilda aholi bandligini ta'minlash va kambag'allikdan chiqarish oyma-oy maqsadli ko'rsatkichlari to'g'risida tuman Kambag'allikni qisqartirish va bandlikka ko'maklashish bo'limi boshlig'i J.Rahimov axboroti;

12-masala: Xalq deputatlari Rishton tuman Kengashi xamda doimiy komissiyalarning 2025 yilga mo'ljallangan ish rejalarini tasdiqlash to'g'risida.

- boshqa masalalar

Sessiya yakunida ko'rib chiqilgan masalalar yuzasidan Xalq deputatlari tuman Kengashining tegishli qarorlari qabul qilindi.